

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
ADABIYOT NAZARIYASI VA ZAMONAVIY ADABIY JARAYON KAFEDRASI**

**«HOZIRGI ADABIY JARAYON VA YANGI O‘ZBEK ADABIYOTI»
FANI BO‘YICHA
O‘QITUVCHI SILLABUSI**

Tuzuvchi: filologiya fanlar nomzodi, dotsent Umida Rasulova

Fan/modul kodi 300.7HAJ10T	O‘quv yili 2020-2021	Semestr 2 (bahorgi)	ECTS – Kreditlar 5	
2 semestrda ECTS – Kreditlar soni – 5		Ta’lim tili O‘zbek	Haftadagi dars soatlari 5	
Fanning darajasi 300	Fan/modul turi Majburiy		Modul rahbari Umida Rasulova UmidaRasulova@navoiy-uni.uz	
Universitet kampusi 1-blok	Hafta kunlari Dushanba, chorshanba		Vaqt Kunning birinchi yarmida	
2-semestr	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Hozirgi adabiy jarayon va yangi o‘zbek adabiyoti	<i>75 soat</i>	<i>75 soat</i>	<i>150 soat</i>
	JAMI	<i>75 soat</i>	<i>75 soat</i>	<i>150 soat</i>

Fanning tavsifi:

“Hozirgi adabiy jarayon va yangi o‘zbek adabiyoti” fani adabiy jarayondagi asosiy tamoyillar yuzasidan chuqur bilim berish, epik, lirik, dramatik asarlarning hozirgi davr bilan bog‘liq qirralarini, xususan, milliy istiqlol g‘oyalriga daxldor jihatlari, ijodkor mahorati borasida ma’lumot beradi.

Adabiy jarayonda yaratilayotgan asarlar xalqimizning milliy ruhi va o‘zligining asosi ekanini hisobga olgan holda, ta’lim-tarbiya tizimida yoshlarning madaniy-ma’rifiy saviyasini oshirish, ularni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash maqsadida o‘zbek adabiyoti namunalari ilmiy-estetik asosda o‘rganish dolzarb muammodir. “Hozirgi adabiy jarayon va yangi o‘zbek adabiyoti fanining ahamiyati hozirgi vaqtda yaratilayotgan badiiyat namunasi mohiyatini anglatish, badiiy asarlarning badiiy-estetik darajasini aniqlash, muallif, kitobxon va real qahramon munosabatini tahlil etish bilan belgilanadi.

Fan mohiyati:

“Hozirgi adabiy jarayon va yangi o‘zbek adabiyoti” fanini o‘zlashtirishda o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Dasturda ko‘rsatilgan mavzular ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlari shaklida olib boriladi. Shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ta’lim sifatida o‘zlashtirish uchun beriladi. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalaniladi. Ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyaning “bumerang”, “matbuot konferensiyasi” singari ilg‘or metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o‘tkaziladi.

Fanning natijasi:

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba adabiy jarayondagi yangilanishni kuzatib, badiiy asar poetikasidagi o‘zgarishni aniqlashi, poetik tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy asar komponentlari, janrlar kompozitsiyasi, adabiyot va ijtimoiy hayot, ijodkor mahorati, badiiy obraz mohiyati to‘g‘risida bilimga ega bo‘ladi.

Baholash mezonlari:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018 yil 26 sentabrdagi 3069-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi" nizomga muvofiq ishlab chiqildi. Baholash ON, YN dan iborat.

Turi	Foizi	Saralash turi	Shakli
Og'zaki yo yozma imtixon	50%	ON, YN	Savol-javob
Mustaqil ta'lim	50%		Savol-javob

Ta'lim berish va o'qitish metodlari:

interfaol keys-stadilar; seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); guruhlarda ishlash; taqdimotlar qilish; jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

Kalit so'zlar:

adabiy jarayon, nazm, nasr, drama, adabiy tanqid, ijtimoiy hayot, mafkura, umuminsoniy qadriyatlar, milliylik, mavzu, g'oya, badiiy tasvir, ijodkor uslubi.

Mavzular ro'yxati:**"Hozirgi adabiy jarayon va yangi o'zbek adabiyoti" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari taqsimoti**

№	Mavzular	Soat
1.	Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga e'tibor.	2
2.	Modern adabiyot mohiyati	2
3.	Hozirgi o'zbek she'riyati.	2
4.	Hozirgi nasr xususiyati	2
5.	Hozirgi hikoyachilik xususiyati.	4
6.	Qissa janri xususiyati	4
7.	O'zbek qissalarida poetic izlanishlar	2
8.	Hozirgi o'zbek romanchiligi	4
9.	Hozirgi dramaturgiya	2
10.	Ijodkor uslubi masalasi	2
	Jami	26

"Hozirgi adabiy jarayon va yangi o'zbek adabiyoti" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar taqsimoti

№	Mavzular	Soat
1.	Hozirgi o'zbek romanlari tahlili	2
2.	Romanda inson va davr munosabati	2
3.	Hozirgi qissalarda yoshlar obrazi	4
4.	Modernistik qissalar tabiati	2
5.	Hozirgi hikoyachilik janriy izlanishlar	4
6.	Zamonaviy hikoyada oila masalasi	2
7.	Zamonaviy she'riyatda ishq talqini	2
8.	She'riyatida vatan mavzusi	2
9.	Hozirgi bolalar adabiyoti	2
10.	Hozirgi dramaturgiyada davr manzarasi	2

**“Hozirgi adabiy jarayon va yangi o‘zbek adabiyoti ” fani bo‘yicha
SEMINAR mashg‘ulotlari taqsimoti**

№	Mavzular	Soat
1.	Istiqlol davri o‘zbek she‘riyati	2
2.	She‘riyatda milliy ruh va an‘analar	2
3.	Qissachilikning janriy takomili	4
4.	Hozirgi qissalarda ayol obrazi	2
5.	Romanlarda tarixiy shaxs talqini	2
6.	Zamonaviy nasrda tabiat tasviri	2
7.	Qissalarda milliy an‘ana talqini	4
8.	Hikoyada bola obrazi	2
9.	Qissada ota timsoli.	3
10.	Yosh nosirlar ijodi	2
	Jami	25

FAN BO‘YICHA SAVOLLAR TO‘PLAMI

1. “Yangi inson” dostonining muallifi kim?
2. “Paxta ishi” yoritilgan asarni belgilang.
3. Tog‘ay Murod qissalarini ayting.
4. Nazar Eshonqulning modern asarlarini ko‘rsating.
5. “Alximik” romanini o‘zbek tiliga kim tarjima qilgan?
6. Hozirgi adabiy jarayon haqida muntazam ma'lumotlar beruvchi manbalarni ko‘rsating.
7. Asar qahramonlarining tashqi qiyofasi, ko‘rinishi tasviri nima deb yuritiladi?
8. Qahramonlarning asar syujeti voqyealari tamom bo‘lgandan keyingi taqdiri haqida ma'lumot beruvchi qism nima deyiladi (Masalan, “O‘tgan kunlar”dagi)?
9. «Portret» qaysi tilga oid so‘z va qanday ma‘noni bildiradi?
10. Cho‘lponshunos olimlar qatorini ko‘rsating.
11. “Olamni bulduruqqa bostirish”ni haqidagi xayol qaysi asarda beriladi?
12. Epik turga mansub janrlarni aniqlang
13. Abdurauf Fitrat qalamiga mansub asarlarni ayting.
14. “Obid ketmon” qissasining asosiy mazmuni?
15. Abdulla Qahhor qissalarini ayting.
16. G‘afur G‘ulomning biografik xarakterdagi asarini ayting.
17. “Qadrim” qissasidagi qahramonlarni aniqlang.
18. “Muqaddas”, “Billur qandillar” qissalarining muallifi kim?
19. Essenavis munaqqidlardan kimlarni bilasiz?
20. “Otam haqida”, “Qatlnoma” asarlari qaysi yozuvchi xotirasiga bag‘ishlangan ?
21. Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar asari qahramonlarini ayting.
22. Qaysi tarixiy asarlarni bilasiz.
23. Fantast yozuvchilarni aniqlang.
24. Qo‘chqor Norqobil qalamiga mansub asarlar.
25. “Falak”, “Charxpalak”, “Shaytanat” asarlarining muallifi kim?
26. Mashhur tarixiy shaxslar hayoti yoritilgan qissalar.
27. Yangicha talqindagi manqurt qiyofasi yoritilgan qissani ayting.

28. “Saodat sohili” qissasida Boburning hamsuhbati toshkentlik olim kim edi?
29. “Dunyoning ishlari” asaridagi asosiy obrazni belgilang.
30. Tabiat va inson uygʻunligi talqin qilingan asarlar.
31. Istiqlol davrida faol ijod qilayotgan romannavislardan kimlarni bilasiz?
32. “Mehrobdan chayon” romani kimning qalamiga mansub?
33. “Mehrobdan chayon” romanida “xabba” soʻzini kim ishlatadi?
34. “Kecha va kunduz” romani qaysi fasl tasviridan boshlanadi?
35. Yormat qaysi roman personaji?
36. Choʻqqi soqol qaysi asar qahramoni?
37. “Kecha va kunduz” romani qaysi fasl tasviri bilan tugallanadi?
38. “Munojot” asarining muallifi kim?
39. Qoplon va Oymomo qaysi asar qahramoni?
40. Qaysi asarda hayvon vafosi tasvirlangan?
41. “Ijodni anglash baxti” asarining muallifi kim?
42. “Istiqlol va bugungi adabiyot” monografiyasining muallifini aniqlang
43. Adabiyot va sanʼat masalalarini yoritadigan jurnal?
44. “Jajman” asarida qaysi illat qoralangan?
45. Milliy anʼana talqin qilingan asarlar.
46. Qaysi matbuot nashrida badiiy tarjimalar koʻp eʼlon qilinadi?
47. “Mezon” asarida qaysi mumtoz dostonning yangi talqini beriladi?
48. Mirzo Ulugʻbek haqida badiiy asar yaratgan ijod korlar?
49. Mirzo Bobur obrazini yaratgan adiblar.
50. “Shoirning toʻyi” asarining muallifi?
51. Mafkuraxonim qaysi asar qahramoni?
52. “Oʻtmishdan ertaklar” qissasiga qaysi sheʼr epigraf qilib tanlangan?
53. “Bonu” asarining muallifi kim?
54. “Yigʻindi gaplar” maqolasi kimning qalamiga mansub?
55. M.M.Doʻst qaysi qishloq hayotidan qissalar bitgan?
56. X.Toʻxtaboev haqidagi adabiy portret qanday nomlanadi?
57. Otashqalb shoir obrazini orqali kimlar taqdiriga ishora qilinadi?
58. “Qora kitob” asarida qaysi sanʼatlar sintezi kuzatiladi?
59. Ziyoli fojiasi talqin qilingan hikoya?
60. “Yulduzlar mangu yonadi” asarida qaysi sport targʻib qilinadi?
61. “Boqiy darbadar” romanida Muborak kishi etikdoʻzga nima deydi?
62. “Togʻlar qulayotganda yoxud mangu qayliq nolasi” asarining muallifi?
63. “Togʻlar qulayotganda yoxud mangu qayliq nolasi” asarida qaysi jonzot qismati yoritilgan?
64. Haybar shahri haqidagi maʼlumot qaysi asarda uchraydi?
65. Qissa janri badiiy adabiyotning qaysi turiga mansub?
66. P.Qodirov qalamiga mansub asarlar.
67. Romanlar sikli qanday nomlanadi?
68. Bayronning “Manfred” dostonini kim tarjima qilgan?
69. Istiqlol sheʼriyatining bosh mavzusini belgilang.
70. Yosh nosirlar ijodi haqida soʻzlang.

**FOYDALANILADIGAN DARSLIKLAR VA OʻQUV
QOʻLLANMALAR ROʻYXATI**

1. Норматов У. Ижодни англаш бахти. –Тошкент: Шарқ, 2004.
2. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. –Тошкент: Шарқ, 2007.

Qoʻshimcha adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги фармони. (Халқ сўзи 2017 йил, 8-феврал).

2. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. –Тошкент: Ўзбекистон. 2009
3. Аъзам Э. Шовкин. –Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
4. Жўракулов У. Худудсиз жилва. –Тошкент: Фан, 2006.
5. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2007.
6. Каримов Б. Қодирий соғинчи. –Тошкент: Фан, 2004.
7. Каримов Б. Абдулла Қодирий феномени. –Тошкент: 2020
8. Норматов У. Кўнгилларга кўчган шеърят. –Тошкент: 2006.
9. Норматов У. Ижодкорнинг даҳлсиз дунёси. –Тошкент: 2009.
10. Расулов А. Бетакрор ўзлик. –Тошкент: Mumtoz soʻz, 2009.
11. Расулов А. Услуб – истеъдод портрети. –Тошкент: 2013.
12. Rasulova U. Hozirgi adabiy jarayon badiiy nasr poetikasida ritm. –Toshkent: 2014
13. Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари. – Тошкент, 2020
14. Санжар Содик. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. –Тошкент: Шарқ, 2005.
15. Sanjar Sodiq. Yangi oʻzbek adabiyoti tarixi. –Toshkent: Oʻqituvchi, 2019
16. Sulton I. Ozod. –Toshkent: Sharq, 2012.
17. Ulugʻov A. Qalb qandili. –Toshkent: Akademnashr, 2013.
18. Xoldorov D. Ijod mohiyati uslub xosiyati. –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017 .
19. Xoldorov D. Hozirgi adabiy jarayon: oʻzbek qissalari uslubi. –Toshkent: Nodirabegim, 2020.
20. Sharafiddinov O. Dovondagi oʻylar. –Toshkent: Sharq, 2005.
21. Oʻzbek modern sheʼriyati. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.
22. Quronov D. Zavqimdan bir shingil. –Toshkent, 2013.
23. Qoʻshjonov M. Oʻzbekning oʻzligi. –Toshkent: Meros, 1994.
24. Gʻafurov I. Hayo – xaloskor. –Toshkent: 2006.
25. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. –Toshkent: 2002.
26. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002.
27. Haqqulov I. Badiiy ijod iqlimi. –Toshkent, 2010.
28. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. –Toshkent, 2010.
29. Mirvaliev S. Oʻzbek adiblari. –Toshkent: Yozuvchi, 2000.
30. Karimov N. XX asr manzaralari. –Toshkent, 2008.
31. XX asr oʻzbek adabiyoti tarixi. –Toshkent: Oʻqituvchi, 1999.

Axborot manbalari:

1. <http://natlib.uz>
2. <http://ensiklopediya.uz>
3. <http://ziyouz.uz>
4. <http://ziyonet.uz>
5. <http://kitob.uz>
6. <http://www.kamolot.uz>
7. <http://www.infolib.uz>
8. <http://referatlar.uz>
9. <http://book.uz>
10. <http://translate.google.co.uz>
11. <http://arxiv.uz>
12. <http://txt.uz>

Oʻqituvchining kontakt maʼlumotlari:

Umida Rasulova@navoiy-uni.uz
Tel: +998 93 540 58 48

Oʻqituvchi bilan haftalik konsultatsiya vaqti:

seshanba va payshanba kunlari kunning ikkinchi yarmida